

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKAZI HODIMLARI UCHUN SERVIS XIZMATLARI BUYURTMALARI QAYD ETIB BORISHNING MA'LUMOTLAR BAZASINI ISHLAB CHIQISH

Rasulmuxamedov M.M.,

*f.-m.f.n., dotsent, Toshkent Davlat transport universiteti Transportda axborot
tizimlari va texnologiyalari kafedra mktidiri;
mrasulmuxamedov@list.ru*

Azimov A.A.,

*Toshkent Davlat transport universiteti Transportda axborot tizimlari
va texnologiyalari kafedra assistenti;
azimovabdulhay1915@gmail.com*

G'affarov N.Y.,

*Toshkent Davlat transport universiteti Transportda axborot tizimlari
va texnologiyalari kafedra assistenti;
mrgaffarov28@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.47689/978-9943-7818-0-1-v2-pp34-37>

Annotation: This article presents the database, their management systems, and the processes of database formation, which are important for recording the work process of the information technology center operating system. The phpMyadmin platform and MySQL language were used to create the provided database.

Keywords: information technology center, ATM staff, distance education, client and server, database.

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalari markazi ishlash tizimining ish jarayonini qayd etib borish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar bazasi, ularni boshqarish tizimlari hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonlari keltirilgan. Ko'zda tutilgan ma'lumotlar bazasini yaratishda phpMyadmin platformasi va MySQL tilidan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari markazi, ATM xodimlari, masofaviy ta'lim, klient va server, ma'lumotlar bazasi.

Toshkent davlat transport universiteti axborot texnologiyalari markazi ish jarayonlarida amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatish jarayonlari uchun qabul qilinadigan xizmat buyurtmalarini to'liq elektron ko'rinishda qabul qilish tizimini tashkil etish [1-5]. Ushbu tizimni tashkil etish jarayonida qo'yiladigan vazifalar:

- Xizmat buyurtmalarini beruvchilar tomonidan amalga oshirilgan har bir qayd yozuvlarini doimiy ro'yhatga olib borish;
- Qayd etilgan yozuvlarni doimiy ravishda ma'lumotlar bazalarida saqlanishini ta'minlash;
- Ma'lumotlar bazalariga kirish cheklovlarini o'rnatish;
- Foydalanuvchilar uchun qulay dasturiy ta'minot yaratish.

Yuqoridagi vazifalarni bajarilishi davomida quyidagilar qat'iy inobatga olinishi nazarda tutiladi [6]. Vazifa ikki bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lib birinchi bosqichda ish jarayonlari ustida tahlillar o'tkazish, axborot tizimining loyihasini

ishlab chiqish, tizimning ishlash prinsplarini belgilash, ma'lumotlar bazasini loyihalash jarayonlari amalga oshiriladi [7]. Ikkinchi bosqichda loyiha asosida ma'lumotlar bazasi bilan real vaqt rejimida ma'lumotlarni almashishga asoslanga dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayoni amalga oshiriladi [8].

Avvalambor, ushbu ishlarni amalga oshirish axborot texnologiyalari markazi ish jarayonlarini o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil etish ishlari amalga oshirish bilan boshlandi [9]. Buning natijasida ma'lum bo'ldiki hozirgi vaqtda ish jarayonlari telefon qo'ng'iroqlari yoki ATM xodimlari va buyurtmachilar o'rtasidagi yuzma-yuz ko'rishish orqali tashkillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda, ATM xodimi uchun katta ko'lamdagi ish hajmi yuklatilgan bo'lib, har bir xodim bir vaqtning o'zida bir necha sohalar bo'yicha o'z ish faoliyatini amalga oshirmoqda [10]. Bu esa ATM xodimlarining doimiy ravishda ish joylarida bo'lishlarining imkoni bo'lmaganligini va shu sababdan o'z buyurtmachilari bilan yuzma-yuz yoki telefon qo'ng'iroqlari orqali bo'g'lanish imkoniyatlarini kamaytirmoqda [11]. Quyida ATM ish jarayonlari yuzasidan olib borilgan ish jarayonlari batafsil keltiriladi [12].


ATM universitetning barcha yo'nalishlar bo'yicha axborot kommunikatsiya vositalarining ish va xizmat faoliyati uchun javobgar bo'lim hisoblanib, ularning doimo ish holatida bo'lishi, yuzaga keladigan kamchiliklarning o'z vaqtida bartaraf etilishi yuzasidan doimiy nazoratni olib borish vazifalarini amalga oshiradi [13]. Shu bilan bir qatorda universitetning ATM bo'limi o'quv hamda universitet ish jarayonlarini yoritib borish bilan shug'ullanishni ham o'z xizmat vakolati doirasida qamrab oladi [14]. Bo'lim texnik jihatdan universitetning barcha kafedralar, bo'limlar, va o'quv jarayonlarida axborot kommunikatsiya qurilmalarining uzluksiz ishlashini qat'iy nazorat etib boradi [15]. Hamda ushbu ishlarni tashkil etish jarayonida quyidagi xizmat turlarini o'z tasarrufiga oladi:

1. Universitet tassarrufiga kiruvchi barcha xizmat kompyuterlarining doimiy ish holatda ekanligini ta'minlash;
2. Universitet tasarrufiga qarashli barcha chop etish va nusxalash(printer va scanner) qurilmalarining doimiy ish holatda bo'lishini ta'minlash;
3. Universitet hududida doimiy ravishda uzluksiz simli yoki simsiz aloqa liniyalarining ish holatda bo'lishini ta'minlash;
4. Tashkil etilgan tarmoqlar orqali tashqi internet aloqasining doimiy ravishda ish faoliyatida bo'lishini ta'minlash;
5. Universitet hududida sodir bo'layotgan yangiliklar va o'zgarishlar yuzasidan doimiy ravishda internet vositalarida axborotlarni yoritib borish(Universitetning rasmiy veb sahifasini yuritish);
6. Masofaviy ta'limni tashkil etish jarayonlarida professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida online ta'lim platformalarini yuritishni amalga oshirish va nazorat qilish ishlari bilan shug'ullanadi.

Hozirgi kunda yuqoridagi qayd etilgan 1-4 xizmat turlarining barchasi universitet ish faoliyatida asosiy bog'inlardan hisoblanib, ularning doimiy ravishda tezkorlik bilan amalga oshirilishi juda muhimdir [7]. Hozirgi kunda ATM ish jarayonlarida bu faoliyat turlari quyidagi ish ketma-ketligida amalga oshirilmoqda.

ATM xodimlari o'z ish jarayonlarida o'zlari uchun birlashtirilgan ish joyiga va xizmat buyumlariga egadirlar hamda ularning doimo ish holatda bo'lishi uchun har birlari mas'uldirlar [16-19].

Sodda holda klient/server arxitektura amaliy dasturdagi qayta ishlashni ikki yoki undan ko'p mantiqiy qismlarga ajratishga asoslangan. Ma'lumotlar bazasi qandaydir amaliy dastur tomonidan foydalanish uchun yaratilgandir. Soddashtirib aytish mumkinki ma'lumotlar bazasi klient/server arxitekturasining bir qismini tashkil qiladi. Ma'lumotlar bazasi "server", undan foydalanuvchi har qanday amaliy dastur "klient" hisoblanadi. Odatda klient va server har xil mashinalarda joylashgan; ko'p hollarda klient amaliy dasturi ma'lumotlar bazasiga do'stona interfeysda bo'ladi. Quydagi grafik shaklda klient/server sodda tizimi tasviri berilgan(1-rasm).



1-rasm. Klient-server arxitekturası

Ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan amaliy dasturlar yaratilganda avvalambor klientni ma'lumotlar bazasi bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'lish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017–2021-yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 02.03.2020dagi PF–5953 sonli farmoni.
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida 21.11.2018dagi PQ-4022 qarori
3. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: "O'zbekiston", 1996, – 349 b.
4. Gavrilova T.A. Xoroshevskiy V.F. Базы знаний интеллектуальных систем. – SPb. Piter. 2001.
5. Djekson Piter. Введение в экспертные системы. Per. s angl: Uchebnoe posobie. – M., «Vilyams» 2001.
6. Digo S.M. Базы данных. Часть I: Учебное пособие. – M., MESI 2004.
7. Rikkardi G. Системы баз данных. Теория и практика использования в Интернет и среде Java. Per. s angl. – M., "Vilyams", 2001.
8. Xalmedova L, Aliev R. Using new site templates based on ms sharepoint // Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 17-20.
9. Алиев Р.М. и др. Методы Расчёта Коэффициентов Рельсового Четырёхполюсника Бесстыковых Рельсовых Цепей // Фундаментальная и Прикладная наука: состояние и тенденции развития. – 2022. – С. 60–75.

10. Aliev R.M. & Aliev M.M. Mathematical model of the sensor for controlling the condition of the track section with an adaptive receiver at the free condition of the controlled section Journal of Physics: Conference Series this link is disabled, 2021, 1973(1), 012021

11. Gulyamova M., Aliev R. MysqIni Ishlab Chiqish va Boshqarish Vositalari // Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 196–198.

12. R.M. Aliev, E.T. Tokhirov, M.M. Aliev Mode Choice Model of Movement in Different Modes Наука, Общество, Образование в современных условиях: монография / Под общ. ред. Г.Ю. Гуляева – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2022. – С. 160.

13. Aliev R. Model Coordinate System of Interval Regulation Train Traffic // International Conference on Computational Techniques and Applications. – Springer, Singapore, 2022. – С. 459–467.

14. Алиев Р.М. Концепция разработки бесстыковых рельсовых цепей // Интерактивная наука. – 2021. – №. 6. – С. 56–57.

15. Tokhirov E.T., Aliev R.M., Aliev M.M. Modern Means and Methods for Monitoring the Condition of Track Sections // Наука, Общество, Технологии: проблемы и перспективы взаимодействия в современном мире. – 2022. – С. 186–203.

16. Технологический процесс склада вагонного депо при автоматизации учетных операций. Т.Р. Нурмухамедов, Ж.Н. Гулямов – SUSTAINABLE DEVELOPMENT FORUM 2022, 2022.

17. Development of the information system for inventory control of wagon depot stock. T.R. Nurmukhamedov, J.N. Gulyamov, T.S. Tashmetov – AIP Conference Proceedings, 2022.

18. Modeling of a railway warehouse commodity and material values accounting (on the example of a train depot). T.R. Nurmukhamedov, Z.N. Gulyamov, S.T. Shaxidaeva – AIP Conference Proceedings, 2021

19. Складские операции вагонного депо пассажирской службы с элементами логистики. Т.Р. Нурмухамедов, Ж.Н. Гулямов – Глобус: технические науки, 2021